

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

O.E.Toshmurodov	
Yosh kurashchilarning harakat ko'nikmalarini shakllantirishda tayanch-harakat apparati harakatchanligini rivojlantirish metodikasi	107
J.M.Hamrakulov	
“Tutorlik faoliyati asoslari” fanini o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash.....	114
D.S.Abdugodirov	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-kreativ kompetensiyasini rivojlantirishning psixologik-pedagogik jihatlari	117
R.A.Jo'rayeva, M.A.Hojiyeva	
Bo'lajak filolog-mutaxassislarining lingvistik kompetentligini rivojlantirish va takomillashtirish – malakali mutaxassislar tayyorlash omili	120
G.I.Otaboyeva, Z.G.Mamataliyeva	
Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining gender madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishda texnologik yondashuv	123
O.X.Rashidova	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ta'limini muammoli vaziyatlar asosida tashkil etish	126
Z.D.Rasulova	
Talabalarning kreativ kompetentligini rivojlantirishda ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish	131
H.Э.Юлдашева	
Эффективные формы и методы развития профессиональной компетентности учителей физического воспитания	136
Е.М.Любимова, А.И.Кудряшова, М.К.Ахмадалиева, К.Д.Патидинов	
Обучение цифровым инструментам и ресурсам студентов - бакалавров педагогического образования	139
Sh.G'.Xasanov	
Bo'lajak o'qituvchilarning kollaborativ yondashuv asosida pedagogik intensiyalarini rivojlantirish modeli	145
M.I.Ne'matov	
Bo'lajak o'qituvchilarda etnopedagogik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari.....	152
I.X.Turdiboyev	
Bo'lajak kimyo o'qituvchilarini xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlash bo'yicha ayrim mulohazalar	160
	IQTISODIYOT
X.X.Бозаров	
Совершенствование научно-методических основ развития малого бизнеса в условиях инновационной экономики	164
	FALSAFA
N.S.Badridinova	
XVII – XVIII asrlarda Movarounnahrda falsafiy va tasavvufiy qarashlar	171
B.B.Dehqonov	
Bahouddin Naqshbandning inson kamoloti haqidagi qarashlari.....	175
O.R.Sultonova, S.S.Sadullayev	
Qishloq yoshlarini iqtisodiyot tafakkurini shakllantirishda raqamli iqtisodiyotning o'rni va ahamiyati	180
I.J.Jabborov	
Shayx Najmiddin Kubro ruboiylarida ishq falsafasi	184
G.N.Navro'zova	
Xoja Ahror Valiy o'zlikni anglash xususida: qiyosiy-falsafiy tahlil	187
M.E.Xujamov	
Yangilanayotgan O'zbekistonda ilmiy-axloqiy qadriyatlarning barkamol avlodni tarbiyalashdagi o'rni.....	191
F.A.Ibroximov	
Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda aholi huquqiy madaniyatining ahamiyati	197



UO'K: 92

BAHOUDDIN NAQSHBANDNING INSON KAMOLOTI HAQIDAGI QARASHLARI**ВЗГЛЯДЫ БАХУДДИНА НАКШБАНДА НА ЧЕЛОВЕЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ****BAHAUDDIN NAQSHBAND'S VIEWS ON HUMAN DEVELOPMENT****Dehqonov Behzod Baxtiyorovich** 

Buxoro davlat universiteti, Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa kafedrası v.b. dotsenti f.f.f.d.(PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada Bahouddin Naqshband barcha insonlarni jamiyatda barcha insonlarni bir-biriga do'st-u ittifoq bo'lishga chaqirgani va so'z orqali yomonlarga qarshi kurash emas, ularni yomon ko'rish emas, balki u ham inson ekanligini anglab, unga xatosini tushunishi va yaxshi kishilar qatoridan o'rin olishiga yordam berish lozimligi ta'kidlangan.

Аннотация

В данной статье подчеркивается, что Бахауддин Накшбанд призвал всех людей в обществе быть в дружеском союзе друг с другом и не бороться с плохими людьми посредством слов, не ненавидеть их, а осознать, что он тоже человек. понять его ошибки и помочь ему занять место среди хороших людей.

Abstarct

In this article, it is emphasized that Bahauddin Naqshband called all people in the society to be a friendly alliance with each other and not to fight against bad people through words, not to hate them, but to realize that he is also a human being, understand his mistakes and help him to take a place among good people.

Kalit so'zlar: Tasavvuf, insonparvarlik, bag'rikenglik, irfon, tariqat, zikr, faqirlik va yo'qsillik, sabr, matonat, bardoshlilik.

Ключевые слова: Суфизм, гуманность, толерантность, гнозис, секта, зикр, нищета и нищета, терпение, сила духа, толерантность.

Key words: Sufism, humanity, tolerance, gnosis, sect, zikr, poverty and poverty, patience, fortitude, tolerance.

KIRISH

Tasavvuf ilmida o'zining Naqshbandiya tariqati tamoyili bilan juda keng tanilgan, Buxoroda yashab o'tgan Yetti Pirning oxirgisi bo'lmish Bahouddin Naqshband (1318-1389) hayoti bilan bog'liq bo'lgan quyidagi bir qator jihatlarda ko'rishimiz mumkin:

Bahouddin Naqshbandning kalomlari insonparvarlik ruhidadir. "Maqomot"da yozilishicha Bahouddindan bir kishi so'raydi: "Nega xizmatkor yollamaysiz?" Bahouddin javob beradilar: "Qullik xojalik bilan mos kelmaydi" va quyidagi ikki baytni aytganlar:

Na maro mafrashu na mafrashkash,

Na g'ulomoni turki tirkashkash.

Hama shab chun sagoni kahdoni,

Sar ba dum ovaram bixusbam xush.

Mazmuni:

Menda na gilam bor, na gilam tozalovchi,

Na turk g'ulomiyu, na suyanadigan kishi.

Tunda men yoturman it kabi miskin,

Boshimni dumimla o'ragancha shod.

Bahouddin Naqshbandning aytgan so'zlaridan ma'lum bo'ladiki, u kishi butun insoniyatni Ollohning bandasi hisoblaydilar. Banda Ollohning qulidir. Qul qanday qilib, boshqalarga xo'jayin bo'la oladi?! Shuning uchun Bahouddin birovni qul qilish, ustidan hukmronlik qilish, ozor berishga mutlaqo qarshi bo'lganlar. Bahouddin Naqshbandning yuqoridagi kalomlari shundan dalolat beradiki, u kishi insoniyat jamiyatida qullik va zo'ravonlik bo'lishiga mutlaqo qarshi chiqqanlar. Bahouddin butun insoniyatni Odam Ato naslidan bo'lganligi uchun ular bir-biri bilan birodar deb ta'kidlaganlar.

Shuningdek barchamiz Ibrohim millatidan deb millatchilik va milliy kamsitishga ham qarshi bo'lganlar. Shuning uchun ham Bahouddin Naqshbandning qullik bilan xojalik bir-biriga mos kelmaydi degan qudsiy kalomlarini Abdrahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqa ko'plab mutafakkirlar o'z asarlarida yozib, uni tahlil etganlar.

NATIJA VA MUHOKAMA

Bahouddin Naqshbanddan: "Darveshlik nima?" deb so'raganlarida, hazrat quyidagicha javob berganlar: "Darveshlik tashdan berang ya'ni, rangsiz va ichdan bejang ya'ni, qarama qarshiliksiz, murosayu madorada bo'lishdir".

To dar in hirqaem az hech kas mo,

Ham naranjemu, ham naranjonem.

Mazmuni:

To shu darveshlik hirqasida ekanmiz biz,

Hech kimdan ranjimaymiz va hech kimni ranjitmaymiz.

Bahouddin Naqshband darvesh, ya'ni so'fiylar barcha insonlarni millati, elati, jinsi, irqi, ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar Ollohning bandasi bo'lganligi uchun uni e'zozlashi lozimligini va shu bilan bir qatorda ularga ozor bermaslik kerakligini ta'kidlamoqdalar.

Bahouddin Naqshband barcha darveshlarga bu so'zni yod olinglar deb, quyidagi baytni ko'p takrorlar edilar:

Nekuvonro do'st dorad har ki boshad dar jahon,

Gar badonro do'st dori, go'y burdi az miyon.

Mazmuni:

Dunyodagi odamlar yaxshi kishilarni do'st tutadilar,

Agar sen yomonlarni ham yaxshi ko'ra olsang, o'rtadan adovatni olgan bo'lasan, ya'ni g'alaba qilasan.

Bahouddin Naqshbandning bu kalomlari ham jamiyatda barcha insonlarni bir-biriga do'stu ittifoq bo'lishga chaqiradi. Bu kalom yomonlarga qarshi kurash emas, ularni yomon ko'rish emas, balki u ham inson ekanligini anglab, unga xatosini tushunishi va yaxshi kishilar qatoridan o'rin olishiga yordam berish lozimligini ta'kidlaganlar. Yomonlarga yaxshilik qilgan insonni chavgon o'yinida go'y, ya'ni aylana koptokni olgan va g'alaba qilgan kishi bilan tenglashtiradi.

Naql qilishlaricha, bir donishmand kishi Bahouddin Naqshbanddan so'ragan: "Silsilangiz qaerga boradi?" Hazrat shunday javob beradilar: "Kishi silsiladan hech qaerga borolmaydi". Bu kalomlari bilan Bahouddin inson qaysidir silsilaga kirganligi bilan ulug' emas, balki insoniylik fazilati bilan ulug'ligini ta'kidlamoqdalar. Bu kalom bilan insonlarni ma'lum tabaqa, nasab va imtiyozli guruhlarga mansub bo'lganligi bilan kibr qilmaslikga chaqiradilar. Agarda ularda ezgu insoniylikka xos fazilat bo'lmasa, unday kishi hurmatga loyiq emasligini va kibr-u havo hamda manmanlik qilmaslik lozimligini aytganlar.

Bahouddin Naqshbandning insonni e'zozlash, qadrlash va unga nisbatan mehr-muruvvati bo'lish haqidagi g'oyalari va hikmatli so'zlarini yoshlar orasida targ'ib etish va tushuntirish jamiyatni tinch-totuv va ahil yashashiga yordam beradi.

Bahouddin Naqshband qalb masalasiga maxsus e'tibor berganlar. Qalb masalasi bag'rikenglik haqidagi g'oyalarning asosidir. Naqshbandiya ta'limotiga Bahouddin Naqshband "Vuqufi qalbiy" - qalbdan ogoh bo'lish rashhasini kiritib, bag'rikenglik tushunchasini mohiyatini ochganlar.

Naqshbandiya ta'limotining tahlili ko'rsatadiki, ularda qalb ikki ma'noda tushuniladi: birinchisi – tanada joylashgan bir parcha go'sht parchasi, ya'ni yurak bo'lsa, ikkinchisi – rabboniy ruh deb ataladigan latoif qalbidir. Qalb latif ilohiy ruh bo'lib, olam haqiqatini idrok etishi, aqllar hayratda qoladigan narsalarni bila olishi, jism bilolmaydigan narsalar va sifatlarni anglashi kabi imkoniyati cheksiz darajada bo'lgan borliqning bir ko'rinishidir. Qalb rabboniy ruh ma'nosida asl haqiqatini biluvchidir. Naqshbandiya ta'limotida rabboniy ruh deb ataluvchi latif qalb bilan jismoniy go'shtpora ko'rinishdagi yurak orasida maxsus bog'lanish borligi ta'kidlangan. Mana shu qalb qanchalik pok undagi halollik va saxiylik shu qadar shakllanib insonni yuzini yorug' qilib boradi. Bu esa insonlarda bag'rikenglikni, taqvodorlikni rivojlantirib boradi. Bu to'g'risida manbalarda xususan Xoja Yusuf Hamadoniyning "Rutbatul hayot" asarida keltirilishicha:

و مصداق این نکته از کتاب کریم آن است که گفت: "و الكاظمين العبط و العافين عن الناس" ملامت در خشم نرفت ملامت در ترك
معالجت و دفع خشم رفت که نسب شیطانی داشت

FALSAFA

Qur'oni karimda aytilgan: "(Taqvodorlar) g'azablarini ichlariga yutadigan, odamlarning (xato va kamchiliklarini) afv etadigan kishilardir" (Oli Imron: 134-oyat.) oyatining asl ma'nosi shaytoniy bo'lgan g'azabni malomat qilish emas, balki uni muolaja qilish lozimdir. Ya'ni har bir insonni qayoqqa qarab tarbiya qilib borilsa u shu yoqqa qarab yo'nalib borib o'z karomatini albatta ko'rsatishi ta'kidlab o'tilgan. Bunda albatta insondagi shaxs ma'naviy fazilatlarini to'g'ri yo'naltirib tarbiya qilib borilsa u insonni bag'rikenglikka tomon yo'naltirib boradi va halol iymonli inson bo'lishiga olib keladi.

Yurak jismi harakatga keltiruvchi bo'lgan qon tomirlariga jon bersa, qalbga olti narsa xosligini Bahouddin Naqshband quyidagicha ta'kidlaydi: hayot va o'lim, sog'lik va kasallik, uyqu va uyqusizlik. Bularning mazmuni quyidagicha izohlanadi: qalbning hayotligi - uni hidoyat qiluvchi ekanligida bo'lsa, qalbning o'limi yo'ldan adashib, zalolatga botishidir; qalbning sog'ligi uning pokligi, kasalligi aloqalar, bog'lanishlar bilan o'ralashib qolishida; uyqu holati - qalbning g'afatda qolishi, uning bedorligi - hushyorligidir. Naqshbandiyada qalbning daqiq, nozik, latifligi ta'kidlanib, uni gunoh, yomon narsalardan asrash lozimligi uqtiriladi. Arzimas gunoh ham yomon oqibatlariga olib kelishi mumkinligi aytiladi.

Shuning uchun Bahouddin Naqshband shunday aytganlar:

Zi g'ayrat xonai dilro zi g'ayr kadaam xoli,

Ki g'ayratro nameshoyad dar in xilvatsaro budan.

Mazmuni:

G'ayrat qilib, qalb uyini g'ayr begonadan bo'shatdim,

Chunki bu xilvat saroyiga ya'ni qalbga (Allohdan o'zga)ni yod aylash mumkin emas.

Yurak va qalbning o'zaro uzviy bog'liqligi Naqshbandiyaning "Dil ba Yoru dast ba kor," – "Qalb Ollah bilan, qo'l ishda" shiorida o'z aksini topgan. Inson faol bo'lishi, ya'ni qo'li ishda, xalq, yurt, el, vatan manfaati yo'lida xolis xizmat qilishi, jismonan kuchli bo'lishi, tananing barcha qismlari uyg'un harakat qilishi uchun yurak sog'lom bo'lishi lozim. Qalb-ma'naviy markazda kibr, hasad, g'azab, nafrat bo'lsa go'shtpora yurak ham qisiladi, qon harakatidagi uyg'unlik buziladi. Bular jismda turli xil kasalliklarni vujudga keltiradi. Shuning uchun yurak qalbga, qalb yurak holatiga bog'langandir.

Bahouddin Naqshbandning qalb haqidagi fikrlari Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniyning bu masaladagi qarashlaridan oziqlangan. "Az guftori Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni" risolasining to'qqizinchi bobi "Dilning salomat bo'lishi haqida" deb nomlanadi. Bu risolada Xojai Jahonning shunday so'zlari keltiriladi: "Bilgilki dilning salomatligi Haq taolo rozi bo'lmagan narsalardan uzoq bo'lishdir. Ertaga sog'lom dildan o'zga hech narsa yordam berolmaydi".

Bahouddinga ustozlarining o'giti: "Odamlar ko'nglini top, o'jiz va notavonlar, xususan xalq e'tibor qilmaydigan kimsalar holiga mashg'ul bo'l, hojatmandlik va kamtarinlik bilan muomala qil"

Xojai Jahon shu risolada bemor dilni salomat qilish uchun quyidagicha maslahat beradilar: "Uning davosi shukim, ulamolar suhbatiga intilib, ularning xizmatida turmoq, ularning aytganini qabul qilib, mashoyixlar huzurida bo'lmoq lozim. Shundagina dildan dunyoga bo'lgan muhabbat ketadi.

Nabiy sollallohu alayhi vasallam: "O'lim kelmasdan avval unga tayyorgarlik ko'ringlar", dedilar. Imom Tabaroniy va Bayhaqiy rivoyati.

Xojai Jahonning shogirdi Orif Revgariy – Mohitobonning "Orifnoma" asarida qalbnı poklashga alohida e'tibor beriladi.

Naqshbandiyadagi "Vuqufi qalbiy" haqidagi ta'limot uchun bu g'oyalar asosiy manbalardan biri bo'lib xizmat qilgan.

Bahouddin Naqshband qalb tarbiyasini nafsni jilovlash, boshqarish, me'yorga solishning asosiy yo'li deb bilganlar. Insonni kamoloti uchun qalbdan ogoh, voqif bo'lishi zarur deganlar. Bahouddin Naqshband o'z nafsining tarbiyasini qiyomiga yetkazib, komili mukammallik darajasiga yetgan edilar. Shuning uchun o'zlari aytar edilar: "Agar xohlasam, nafsimni ellik marta suv labiga olib borib, yana tashna holda qaytarib kelaman".

Bahouddin Naqshband qalbga "ruhoniyl va jismoniy olam o'rtasidagi vositadir" deb baho beradi va shunga asoslanib tariqatga birinchi bo'lib "vuqufi qalbiy" deb nomlangan talabni kiritadi. Bahouddin Naqshbandning "vuqufi qalbiy" ta'limoti quyidagi ikki ma'noni anglatadi. Birinchisi: "haqiqatni anglashni istagan kishining qalbi Haqdan ogoh bo'lib turishi. Buni yoddosht deb aytadilar". Shu ma'noda yana u "vuqufi qalbiy" qalbning Haqdan shu darajada ogoh va hozir bo'lishiki, Xudoning o'zidan boshqa biron narsa uni mashg'ul qilmaydi", deb aytadi.

Ikkinchi ma'nosi: "Solik o'z qalbidan voqif bo'lishi va tavajjuh qilishi ya'ni unga to'la yuzlanishi kerak. U qalbini Tangri zikri bilan mashg'ul bo'lishga chorlashi va uni g'ofil bo'lishga qo'ymasligi kerak".

Demak, vuqufi qalbi shunday ta'limotkim, inson unga asoslanib, doimo barcha holat va ish qilayotganida qalbiga qarab ogoh bo'lishi, qalbi bo'lsa faqatgina ilohiy nurlarni tajalliy etishi kerak. Shundagina inson Ollohning yerdagi xalifasi va butun olamning gultoji vazifasini bajara oladi. U shundagina Kubro olamini botinida aks ettirib, ayni paytda sug'ro olami bo'lib qola oladi. Bu ta'limotda tavajjuh va muroqaba amaliyoti birlashgan bo'ladi. Muroqaba ilohiy nur, fayzga intizorlikdir.

Qalb tarbiyasi uchun avvalo asosiy yo'l uni poklash ekanligini Bahouddin Naqshband ta'kidlaganlar. Poklanishi uchun birinchidan tavba maqomining o'rni kattaligi ko'rsatilgan.

Hazrat Naqshband inson ruhiy kamolotining birinchi maqomini "tavba" va uni qalb olamiga kirishning ibtidosi deb, tushuntirgan. Tavba tushunchasi "qaytmoq" ma'nosini anglatib, kishi ilohiy darajaga yuksalish yo'lga kirarkan, Haqqa eltadigan uzoq yo'ldan yaqin yo'lga qaytadi.

Bahouddin tavbani turli bosqichlarni o'z ichiga olgan yagona ruhiy kamolot jarayoni deb bilgan. U tavbani to'rt guruhga bo'ladi.

1. Avom tavbasi – zohiriy gunohlardan qaytish.
2. Solih tavbasi – axloqiy zamimadan qaytish.
3. Botin tavbasi – qalbni poklash uchun qaytish.
4. Muhiblar tavbasi – g'aflatdan qaytish.

Bahouddin Naqshband har bir insonga har tong quyidagi to'rtlikni takrorlashni tavsiya etadi:

Yo rab, bikusho ba dilam az tavba dare,
Be minnati maxluq rason mohazare.
To oxiri umramon chunin dor moro,
Az mo narasad ba hech kas hech zarare.

Mazmuni:

Yo rabbim, qalbmida tavba eshigini ochgin.
Yaratmishlaring minnat qilmaydigan butun rizq bergin.
Umrimiz oxirigacha shunday saqlagin bizni.
Tokim bizlardan hech kimga hech zarar yetmasin.

Demak, qalbni poklash uchun eng avvalo tavba maqomiga kirish, ya'ni xato-kamchilikni anglab, undan qaytish lozim ekan. Tavba jismni yomon xatti-harakatlar ta'sirida hosil bo'lgan illatlardan forig' etib, ruhni yengillashtiradi, buning ta'sirida esa kishi jismoniy kasalliklardan ham qutuladi. Chunki haqiqiy tavba - yomon xatti-harakat, hasad, kina, gina, ta'ma, g'aybat, kibr kabi illatlar tufayli keladigan azob-uqubatlar oldini olib, jismoniy va ruhiy quvvatlarning jamini to'g'ri sarflab, kamolot uchun yo'l ochadi.

Tavba yo'lini topgan kishi nafs balosidan qutuladi. Demakki, behuda gapirish, behuda uxlash, behuda yeyishdan tiyiladi. Bu ham kishini jismoniy va ruhiy kamolot sari boshlaydi.

Demak, so'fiylar qalbni nazorat etib, undagi har bir harakatni kuzatib, niyatni poklab, qalbdagi kina, kudurat, kibr, havo singari illatlarni olib tashlab, uni yumshatib, undan o'tadigan har bir tomchi qonni poklaganlar va kishilarni shaytoniy yo'ldan rahmoniy yo'lga boshlaganlar. Ya'ni, haqiqatga yetish uchun zohiriy poklanish bilan birga botiniy poklanish shart deb bilganlar.

Qalbni tiriltiruvchi vosita Allohni doimo eslab, zikr etishidir. Bu ma'noda Bahouddin Naqshband shogirdlari Ya'qubi Charxiyga shunday deganlar:

Dil chun mohi, zikr chun ob ast,
Zindagii dil ba zikri Vahhob ast.

Mazmuni:

Qalb baliq va Ollohni eslash-zikr suvdur,
Qalb tirikligi Vahhob (Alloh nomi)ni eslash bilandir.

Hadislardan birida, "Nabiy sollallohu alayhi vasallam: "Tamagirlik ulamolarning qalbidagi hikmatni ketkazadi", dedilar". Imom Suyutiy hadis hasan darajasida dedilar.

Zero, qalb Olloh nazar qiladigan makon bo'lib, ilohiy nurlarni qabul etishi va kamol topishi kerak. Tama esa qalbni qora bulutdek qoplaydi va unga hikmat nurlarini o'tkazmaydi. Shuning uchun ham inson o'z qalbining har bir niyatini, harakatini nazorat etishi, xatolarga tavba bilan, yaxshiliklarga shukr bilan amal qilishi lozim. Bu nazorat turini Bahouddin Naqshband muhosaba deb ataydi. Muhosaba amalini tasavvufda ilk so'fiylardan bo'lgan Muhosibiy kiritgan.

FALSAFA

Bahouddin Naqshband g'oyalarini Xoja Ahror, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Maxdumi A'zam va boshqalar davom ettirgan. Insonning ajoyib jismi bir maxfiy sir xazinasini o'laroq o'zida ana shu ganj tilsimini saqlaydi. Chunki Tangri o'z sirining xazinasini ochmoqchi bo'lganida uni na samo, na yer qabul qilmadi. Inson shuning uchun barcha narsalardan mumtoz qilib yaratilgan. Inson Yerdagi Xudoning o'rinbosari – xalifasi bo'lishi baxtiga sarafroz bo'lgan. Inson Tangri Jamolu Jalolini bilishi, o'ziga xos, mumtoz va Tangrining yerdagi xalifasi bo'lishi baxti qalbi – ko'ngli tufaylidir.

XULOSA

Naqshbandiya ta'limotida bo'lgan Alisher Navoiy "Lisonut-tayr" dostonida Bahouddin Naqshbandning qalb haqidagi g'oyalarini rivojlantiradi va ko'ngilni ko'zguga qiyos etadi. Navoiy inson ko'ngli Haq tomoniga qaratilsa unda Oллоhning husnu jamoli jilva etadi, bu jarayonda inson oynani to'g'ri tutishi masalasi ham muhim ekanligini ta'kidlanmoqda. Chunki oyna qayerga qarasa o'sha nurni aks ettiradi. Inson o'z mohiyati va ko'nglini oliy qadriyatligini anglasa uni to'g'ri tutib, oynadorlik vazifasini ijobiy hal eta oladi.

Ma'lum bo'ladiki, ko'ngil qancha pok va ilohiy mohiyatni anglashga ravona etilgan bo'lsa, shuncha asl haqiqat unda aks etadi. Agar inson miyasi moddiy olamnigina aks etsa va uni anglab, tahlil etsa, qalb butun borliqni aks ettira oladi. Miyani bilish, aks etishning chegara, cheki, me'yori bor, ammo qalbning bilish darajasi cheksizdir. Shuning uchun ham qalb in'ikosini umuman aks etish jarayonining eng oliy darajasi deyish mumkin.

Bahouddin Naqshband quyidagi ruboiyni takrorlab yurishni shogirdlariga aytganlar:

Az xuni dilam du chashmi purnam behtar ast,
Az ayshu nishot, mehnatu g'am behtar ast.
Yak lahza huzuri dil ba dargohi xudo,
Az saltanati tamomi olam behtar ast.

Mazmuni:

Yurak qonidan, namli ikki ko'z yaxshidir,
Aysh-u shodlikdan, mehnat-u g'am yaxshidir.
Bir on qalbning Xudo dargohidagi huzuri,
Butun olam saltanatidan yaxshidir.

XV asrning ikkinchi yarmida Naqshbandiya tariqati vakillarining davlatdorga bo'lgan munosabati tubdan o'zgarib ketdi. Naqshbandiyaning hukmdorga nisbatan siyosatining o'zgarishi Xoja Ahror Valiy faoliyati bilan bog'liq. Manbalarda bu o'zgarish mohiyatini muxolifatdan musolahaga o'tishdan iborat edi, deb tushuntiriladi. Ya'ni Xoja Ahror Valiy davridan boshlab tariqat manfaatlari va keng ma'noda xalq manfaatlarini ko'zlagan holda, tariqatning hukmdorga bo'lgan muxolifatidan, tariqat bilan davlat o'rtasida hukm surib kelgan qarama-qarshilik va murosasizlikdan voz kechib, ular bilan munosabat o'rnatish edi. Naqshbandiya o'zining uch asrlik tarixida ilk bor davlat va hukmdorga yuz tutib, ular bilan munosabat o'rnatdi, hamkorlik qilishga o'tdi. Tariqat va davlat o'rtasida o'rnatilgan bu yangi, ijobiy munosabat keng ma'noda bo'lib, uning barcha shakl va turlari jumladan bordi-keldi, muloqot, suhbat, kengash, maslahat, kelishish, hamkorlik va boshqa shunga o'xshash ma'nolarni bildiradi. Naqshbandiyaga doir manbalarda Xoja Ahror Valiy tufayli tariqat va davlat o'rtasida yuzaga kelgan munosabat keng ma'noli "ixtilot" tushunchasi bilan ifodalangan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Рутбатул ҳаёт. Хожа Юсуф Ҳамадоний, Доктор Муҳаммад Амин Райёҳий таҳрири остида. Тус: Чопхонаи Хожа 1984. –Б. 45.
2. Мавлоно Яъқуб ибн Усмон Чархи. Мухтасар дар баёни силсилаи Нақшбанд. Қўлэзма. УзФАШИ, №9928-У - 7б варақ.
3. <https://zamaxshariy.uz/601/>
4. Хожа Абдуллоҳиқ Ғиждувоний. / Сўз боши, таржима, луғат ва изоҳлар муаллифи М.Ҳасаний. Т.: Ўзбекистон, 2003. 118-бет.
5. Муҳаммад Порсо. Рисолаи қудсия. Тошбосма, -Б. 87.
6. Фахриддин Али Сафий. Рашаҳот. (Оби ҳаёт томчилари) Т. 2003. 41-бет.
7. Ғури Али бин Аҳмад. Канз ал-ибод фи шарҳ ал-Аврод: Қўлэзма. Ўз ФАШИ, инв. N 2944/1. 2а-варақ.
8. Муҳаммад Боқир. Мақомоти ҳазрат хожа Нақшбанд. Тошбосма. –Б. 90.
9. https://www.mukammal.uz/admin/files/Xoja_Bahouddin_Nakshband_hayoti_va_ma%E2%80%99naviy_merosi.pdf
10. Изоҳ: Мухолафат-келишмовчилик, тескаричилик. Мусолаҳа-келишув, мурсою мадора. Бу ҳақда қаранг: Навоий асарлари луғати. Тошкент: 1972. – Б. 431.
11. Саъдиев С. Нақшбандия тариқатининг улуғ ислоҳотчиси // Сино журнали. (Баҳор), 2004. № 13 – Б. 22.